

“Alpomish” dostonida badiiy fonetika elementlari

Yunusova Barchinoy Mahmudxonovna
Namangan davlat universiteti doktoranti (DSc)

Namangan, O‘zbekiston

Email: barchinoyyunusova21@gmail.com. Mobile phone: +998999795105

Annotatsiya: “Alpomish” dostoni turkiy xalqlarning qadimiy og‘zaki epik merosining nodir namunalaridan biri bo‘lib, ularning til, madaniyat va tarixiy xotirasini aks ettiradi. Ushbu asar turkiy xalqlar, jumladan qozoq, qirg‘iz, o‘zbek, turkman va boshqalarning og‘zaki merosida turli variantlarda saqlanib qolgan bo‘lib, etnolingvistik va filologik tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi. Bu tadqiqotda “Alpomish” dostonining badiiy fonetikasi tahlil qilinadi, ya’ni asarda qo‘llanilgan fonetik vositalar (ritm, intonatsiya, alliteratsiya, assonans, takror, qofiya va boshqalar) orqali epik mazmunning badiiy ifodaliligi va estetik ta’siri o‘rganiladi. Badiiy fonetika usullari dostonning og‘zaki nutq xususiyatlarini, uning musiqaviyligini va tinglovchi ongiga ta’sir etish mexanizmlarini tushunishda asosiy rol o‘ynaydi. Tadqiqotda badiiy fonetik vositalarning semantik funksiyasi – qahramonlar obrazlarini yoritishda, dramatik keskinlikni kuchaytirishda va milliy madaniy kodlarni yetkazishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Epik matnlarda takrorlarning ritmik tuzilishi, ohangdorlikning psixolingvistik ta’siri kabi jihatlar ilmiy nazariyalar asosida yoritiladi. “Alpomish” dostonining badiiy fonetikasi haqidagi bu maqola turkiy xalqlarning og‘zaki merosida tilning nutqiy va estetik imkoniyatlarini o‘rganishga, shuningdek, epik an‘analarning lingvomadaniy o‘xshashliklarini aniqlashga qaratilgan muhim ilmiy ish hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: qahramonlik eposi, doston, saj’, epik an‘ana, badiiy fonetika, fonetik vositalar, fonostilistika, alliteratsiya, assonans, parallelizm

Фонетические средства художественной выразительности в эпосе “Алпамыш”

Юнусова Барчиной Махмудхоновна

Докторант (D.Sc.) Наманганского государственного университета

Наманган, Узбекистан

Email: barchinoyyunusova21@gmail.com. Mobile phone: +998999795105

Аннотация: “Алпамыш” – один из выдающихся образцов древнего устного эпического наследия тюркских народов, отражающий их язык, культуру и историческую память. Это произведение сохранилось в различных вариантах в фольклоре тюркских народов, включая казахов, кыргызов, узбеков, туркмен и других, и является важным источником для этнолингвистических и филологических исследований. В данном исследовании проводится анализ художественной фонетики эпоса «Алпамыш», то есть изучение звуковых средств (ритм, интонация, аллитерация, ассонанс, повтор и др.), посредством которых раскрывается художественная выразительность и эстетическое воздействие эпического

содержания. Методы художественной фонетики играют ключевую роль в понимании особенностей устной речи эпоса, его музыкальности и механизмов воздействия на сознание слушателя. В работе рассматривается семантическая функция фонетических средств – их значение в раскрытии образов героев, усилении драматического напряжения и передаче национальных культурных кодов. Научные теории освещают такие аспекты, как ритмическая структура повторов и психолингвистическое влияние мелодичности в эпических текстах. Исследование художественной фонетики «Алпымыш» представляет собой важную научную работу, направленную на изучение речевых и эстетических возможностей языка в устном наследии тюркских народов, а также на выявление лингвокультурных сходств эпических традиций.

Ключевые слова: героический эпос, эпическая традиция, художественная фонетика, фонетические средства, фоностилистика, поэтическая речь, аллитерация, ассонанс

Phonetic devices of artistic expression in the epic “Alpamysh”

Yunusova Barchinoy Mahmudxonovna
D.Sc. researcher, Namangan State University
Namangan, Uzbekistan

Email: barchinoyyunusova21@gmail.com. Mobile phone: +998999795105

Abstract: “Alpomysh” is one of the outstanding examples of the ancient oral epic heritage of the Turkic peoples, reflecting their language, culture and historical memory. This work has been preserved in various versions in the folklore of the turkic peoples, including the kazakhs, kyrgyz, uzbeks, turkmens and others, and is an important source for ethnolinguistic and philological research. This study analyzes the artistic phonetics of the epic “Alpomysh”, that is, studies the phonetic means (rhythm, intonation, alliteration, assonance, repetition, etc.), through which the artistic expressiveness and aesthetic impact of the epic content are revealed. The methods of artistic phonetics play a key role in understanding the features of the oral speech of the epic, its musicality and the mechanisms of influence on the consciousness of the listener. The work considers the semantic function of phonetic means - their importance in revealing the images of heroes, enhancing dramatic tension and conveying national cultural codes. Scientific theories cover such aspects as the rhythmic structure of repetitions and the psycholinguistic influence of melody in epic texts. The study of the artistic phonetics of “Alpomysh” is an important scientific work aimed at studying the speech and aesthetic possibilities of language in the oral heritage of the turkic peoples, as well as identifying the linguacultural similarities of epic traditions.

Key words: heroic epic, epic tradition, artistic phonetics, phonetic means, phonostylistics, poetic speech, alliteration, assonance

Kirish: “Alpomish” ajdodlarimiz ijodiy dahosining bebaho badiiy yodgorligi sifatida jahon xalqlari epik ijodiyoti namunalari ichida alohida o‘rin tutadi. Xalqimizning nodir durdonasi bo‘lmish bu dostonda o‘zbekona fe‘l-atvor, oriyat, vijdon, imon-e‘tiqod, ma‘naviyat, milliy ruh, shuningdek, sof muhabbat, do‘stlik, qahramonlik, el-yurtga sadoqat, chuqur insoniylik kabi abadiy abadiy yuksak va go‘zal ideallar ulug‘lashgan.¹

“Alpomish” dostonining jahon madaniy merosi sifatida tan olinishi nafaqat o‘zbek xalqining balki butun insoniyatning ma‘naviy boyligi ekanligini tasdiqlaydi. U turkiy xalqlarning mushtarak dostoni hamdir. Uning namunalari o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, oltoy xalqlari epik an‘analarida doston holida, tatar, boshqird xalqlari orasida esa, ertak, rivoyatlar tarzida saqlanib qolgan hamda bu xalqlarning til xususiyatlariga ko‘ra “Alpomish”, “Alpamis”, “Alpamis botir”, “Alip-Manash”, “Alpamsha”, “Alpamisha va Barsin hiluv” kabi nomlar bilan yuritiladi.² Shuningdek folklorshunos olim To‘ra Mirzayev “Alpomish”ning o‘zbek dostonchilik an‘analari ta‘sirida yuzaga kelgan hamda jiddiy transformatsiyaga uchragan tojikcha va arabcha variantlari ham borligini, o‘rta asr o‘g‘uz eposi “Kitobi dadam Qo‘rqut”ning uchinchi dostoni “Bamsi Bayrak” ham o‘zining syujeti jihatidan bu dostonga ancha yaqin turishini ta‘kidlab o‘tgan.³ Bu abadiy asarda aks etgan milliy qadriyatlar, insoniy fazilatlar va universal ideallar uni zamonaviy dunyoda ham dolzarb va didaktik ahamiyatga ega qilmoqda. Eposning badiiy jihatdan noyobligi shundaki, u turkiy xalqlarning tarixiy xotirasini va madaniy genetik kodini saqlab kelgan, xalqimizning falsafiy va ma‘rifiy qarashlarini o‘zida aks ettirgan og‘zaki ijod an‘analarining eng yuksak durdonasi hisoblanadi. Bejizga xalq og‘zaki ijodining noyob namoyondasi, epik merosni tadqiq qilish sohasidagi nodir mutaxassis To‘ra Mirzayev “Alpomish”ni “dostonlar gultoji” va “epik she‘riyat namunalarining birinchisi” deya atamaydi⁴.

“Alpomish” dostoni UNESCO tomonidan 2001-yilda Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi (Intangible Cultural Heritage of Humanity) ro‘yxatiga kiritilgan.⁵ Bu qaror O‘zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlarning

¹ Муродов М., Эргашев А. Алпомишнома: Сурхондарё талқини. – Тошкент: Меҳнат, 1999. – Б. 12.

² Mirzayev T. Dostonlar gultoji // O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 1-j. – B. 22.

³ Qarang. Dostonlar gultoji // O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 1-j. – B. 22.

⁴ Qarang. Mirzayev T. Dostonlar gultoji // O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 1-j. – B. 21.

⁵ Abdullayev R., Toshmatov O‘., Eshonqulov J. va boshqalar. Intangible Cultural Heritage of Humanity. National Commission of Uzbekistan for UNESCO, 2017. – B. 38.

ogʻzaki epik merosining ahamiyatini tan olish va uni xalqaro miqyosda qoʻllab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan. UNESCO tomonidan tan olingan bu meros, kelajak avlodlar uchun maʼnaviyat manbai, milliylik ramzi va insoniy fazilatlarining timsoli boʻlib xizmat qilishda davom etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Oʻzbek lingvofolkloristikasida “Alpomish” dostonining leksik, dialektal, frazeologik, uslubiy, lingvofolkloristik, onomastik xususiyatlari R.Rasulov, S.Tursunov, B.Toʻychiboyev, N.Mahmudov, R.Sayfullayeva, I.Yormatov, S.Yoʻldosheva, A.Abdiyev, Y.Hojiyev, D.Ashurov, B.Yunusovalar tomonidan oʻrganilgan. T.Mirzayev, J.Eshonqul, S.Fidokor, B.Oʻrinboyev, K.Bozorboyev, A.Turobovlar tomonidan dostonga doir lugʻatlar ham yaratilgan, biroq dostonda fonetik birliklarning roli maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur maqolada qiyosiy tahlil, semantik tahlil, tasniflash, tavsiflash metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. “Alpomish” dostoni oʻzbek xalq ogʻzaki ijodining anʼanaviy hijoli barmoq sheʼriy oʻlchovi vaznida yozilgan. Oʻzbek xalq dostonlari kabi anʼanaviy nasriy, koʻpincha sajʼli va sheʼriy qismlardan iborat. Aniq hijolar soni nashrga, variantga va hikoya qismlariga qarab farq qilishi mumkin. “Alpomish” turli xalqlar ogʻzaki versiyalarida 10000 misradan tortib baʼzi nashrlarda 15000-20000 misragagacha boʻlgan katta epik poema hisoblanadi. Dostonda 11 boʻgʻinli, baʼzan 7-8-11 boʻgʻinli aralash sheʼriy vazndan foydalanilgan, shakliy rang-baranglik asar mazmuni bilan uzviy bogʻliq boʻlib, qahramonlarning kayfiyati, harakati va psixologik holatini aks ettiradi. Dostonda uzun misrali sheʼrlar harakatning sustligini, dramatik ohangni yoki fikr chuqurligini bildirsa, qisqa misralilar esa janglarning shiddati, tez oʻzgaruvchan voqealar yoki qahramonlarning chaqqonligini koʻrsatadi. Bu badiiy usul nafaqat akustik joziba yaratadi, balki harakat tasvirining dinamikasini ham taʼkidlaydi. Shu bilan birga, sheʼriy tuzilmaning oʻzgarishi – voqea ritmi, muhit va qahramonlarning ichki kechinmalariga moslab uygʻun ishlatiladi.

Shuningdek, “Alpomish” dostonida qoʻllanilgan badiiy fonetik vositalar asarning estetik taʼsirini kuchaytirish bilan birga uning mazmuniy qatlamlarini

ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqotda doston matnidagi tovush takrorlari, ritmik tuzilmalar va ularning semantik ahamiyati tahlil qilinadi.

Fonetik usul bilan ma'no kuchaytirish o'zbek tilida boshqa usullarga nisbatan eng faol va universaldir: ohang, tovushlar mosligi, uyg'unligi, urg'u va uning tushish o'rni, ma'noga ta'siri, bo'g'inlar va ularning qofiyadoshlikni yuzaga keltiruvchi xususiyatlari, qofiya, ritm, unlining kuchli talaffuzi (zarb urg'u), geminatsiya kabilar.⁶

Fonetik vositalarning eng keng tarqalgan turlaridan biri bu fonetik takrordir. Tovush takrori barcha nutq turlarida uchraydi, lekin vaznga solingan nutq bu takrorlarni izchil tartibga solib, uning badiiy ta'sirini kuchaytiradi. Takror nutqning jozibadorligini oshiruvchi asosiy usul hisoblanadi. Uning turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, har biri o'ziga xos shakl va ma'noga ega. Bu esa so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqot samaradorligini oshiradi.

Fonetik takrorning badiiy funksiyasini tushunish uchun dostonning quyidagi saj'li nasriy qismlarini misol qilib keltirish mumkin:

Biylarning ko'nglini xushlamadi, otini ushlamadi, ostiga libos tashlamadi, osh tortdi, suzgan tovoqni choshlamadi, osh tortganda, oshning ketini-ko'tini tortdi. (1-jild, 33-b)

Berilgan matnda tovush takrorlari (assonans, alliteratsiya, saj', leksik takror va ritmik uyg'unlik) orqali epik nutqning jozibadorligi ifodalangan. Quyida ushbu jihatlarni tahlil qilamiz:

Assonans (unli tovushlarning badiiy takrori)

Matnda a, o, u unlilarining qat'iy takrorlanishi kuzatiladi: *Biylarning ko'nglini xushlamadi, otini ushlamadi...* (1-jild, 33-b)

Bu yerda a tovushi 4 marta takrorlanib, rad etish, qarshilik ko'rsatish harakatlarining keskinligini ta'kidlab, epik kayfiyatni kuchaytirib bergan.

Alliteratsiya (undosh tovushlarning badiiy takrori). Alliteratsiya nutqning ritmik tuzilishini mustahkamlab, epik voqealarning tez sur'atda rivojlanishini aks ettiradi. Alliteratsiya – she'riy asarlarda va qisman nasriy asarlarda ham bir xil tovushlarning takrorlanish hodisasidir.⁷

Matnda sh, t, l, r undoshlarining qat'iy takrori mavjud: *Ko'nglini xushlamadi, otini ushlamadi... sh va l* tovushlari – harakatlarning keskinligini ta'kidlab kelmoqda.

Parchaning ritmik tuzilishi ham alohida e'tiborga loyiq. Parallelizm (qatorlarning bir xil sintaktik tuzilishi) va takror usullari orqali kuchli ritmik ta'sir

⁶ Турсунова О.А. Ўзбек тили фонетик бирликларининг поэтик имкониятлари. PhD....diss. avtoref. – Farg'ona, 2019. – Б. 14.

⁷ Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 26.

yaratilgan. Har bir ibora 3-7-9-10 bo‘g‘inli bo‘lib, tez ritm o‘rnatadi (“osh tortdi”, “otini ushlamadi”, “ostiga libos tashlamadi”). Oxirida uzunroq ibora (“oshning ketini-ko‘tini tortdi”) – ritm sekinlashishi bilan yakunlanishni ifodalaydi, epik nutqning an‘anaviy ritmini saqlaydi:

otini ushlamadi (7 bo‘g‘in)

ostiga libos tashlamadi (9 bo‘g‘in)

osh tortdi (3 bo‘g‘in)

suzgan tovoqni choshlamadi (9 bo‘g‘in)

osh tortganda (4 bo‘g‘in)

oshning ketini-ko‘tini tortdi (10 bo‘g‘in)

Bu tuzilish dostonni yoddan aytishni osonlashtiradi va epik ritmni saqlab turadi.

“Alpomish” dostonida leksik takrorlarning ham o‘ziga xos funksiyasi bor. “Osh tortdi” iborasining qayta-qayta takrorlanishi bu voqeaning ahamiyatini ta’kidlaydi. O‘zbek madaniyatida “osh” atamasi faqat taom nomi emas, balki milliy madaniyat kodlari, tarixiy xotira va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi lingvomadaniy fenomen hamdir. “Oshga chaqirish” esa faqat taom taklif qilish emas, balki saxovat, hurmat va ijtimoiy munosabatlarning chuqur ramziy ifodasidir.

“Boybo‘ri bilan Boysari – ikkovi katta bo‘ldi. Boysari boy edi, Boybo‘ri esa shoy edi, Bul ikkovi ham farzandsiz bo‘ldi”. (1-jild, 33-b)

Bu matnda o unlisining qat’iy takrorlanishi (“Bo‘ybo‘ri”, “Boysari”, “bo‘ldi”, “boy”, “shoy”) qahramonlarning nomlari va ularning asosiy xususiyatlarini ta’kidlashga xizmat qiladi. Tovush takrorining bu usuli - assonans - epik matnning musiqaviyligini ta’minlab, eshitishda yoqimli taassurot qoldiradi.

Shuningdek, parchada b undoshining dominantini kuzatishimiz mumkin: “Boybo‘ri”, “Boysari”, “boy”, “bo‘ldi”, “bo‘ldi”, “bul”. Takror matnning 75% qismida, ya’ni 8ta so‘zda, har bir misrada kamida 2 marta ishlatilgan. B tovushi personajlar nomi (“Boybo‘ri”, “Boysari”) va ularning xususiyatlarini (“boy”, “shoy”) bog‘laydi. Jakobsonning “lingvistik poetika” nazariyasiga ko‘ra, bu parallelizm hodisasidir. Ya’ni she’riy yoki nasriy nutqda parallelizm – sintaktik, fonetik yoki semantik jihatdan takrorlanuvchi strukturalar – asosiy badiiy usul hisoblanadi. Uning fikricha, parallelizm nutqning poetik funksiyasini amalga oshiradi.⁸ Matnda b tovushining intensiv ishlatilishi yaxlitlik va qarama-qarshilikni

⁸ Якобсон, Р. (1975). “Лингвистика и поэтика”. В: *Структурализм: “за” и “против”*, сб. статей, ред. Е.Я. Басин, 193-230. Москва: Прогресс.

bir vaqtning o'zida ifodalaydi. Bu xalq og'zaki ijodining tipik alliteratsion namunasi bo'lib, fonetik uyg'unlik orqali mazmuniy birlikni mustahkamlaydi.

Dostonning fonetik jihatlari uning mazmuni bilan uzviy bog'liqdir. Masalan, "shoy" so'zidagi sh tovushi yumshoqlik va ma'naviyatni, "boy" so'zidagi b tovushi esa mustahkamlik va moddiy boylikni anglatadi. Bu tovushlarning semantik funksiyasi qahramonlarning xarakterini ochib berishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, "Alpomish" dostonidagi badiiy fonetik vositalar - assonans, alliteratsiya, leksik takror va ritmik tuzilmalar – asarning badiiy qadriyatini oshirish, mazmunini chuqurroq yetkazish va eshitishda jozibadorlik yaratish uchun xizmat qiladi. Bu vositalar dostonning og'zaki ijod an'alariga xos xususiyatlarini aks ettiradi va uning milliy madaniy meros sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Муродов М., Эргашев А. Алпомишнома: Сурхондарё талқини. – Тошкент: Меҳнат, 1999.
2. Мирзаев Т. Достонлар гултожи // Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 1-ж. – Б. 21-38.
3. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 227 б.
4. Abdullayev R., Toshmatov O., Eshonqulov J. va boshqalar. Intangible Cultural Heritage of Humanity. National Commission of Uzbekistan for UNESCO, 2017. – B. 38.
5. Турсунова О.А. Ўзбек тили фонетик бирликларининг поэтик имкониятлари. PhD....diss. avtoref. – Farg'ona, 2019. – Б. 14.
6. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 26.
7. Алпомиш. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. (Фозил Йўлдош ўғли варианты). Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 1-ж.
8. Якобсон, Р. (1975). "Лингвистика и поэтика". В: Структурализм: "за" и "против", сб. статей, ред. Е.Я. Басин, 193-230. Москва: Прогресс.